



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

### **XAYRIDDIN SULTONOVNING "KO'NGIL OZODADUR" QISSASIDAGI MAQOLLARNI LEKSIK-SEMANTIK TAHLIL QILISH**

**Tursunova Shohsanam Sultonmurod qizi**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Yozuvchi Xayriddin Sulton o'z asarlari orqali o'zbek tilining boy imkoniyatlarini, fazilatlarini ko'rsatishga nihoyatda urg'u beradi. Ushbu maqolada yozuvchi ijodiga mansub bo'lgan "Ko'ngil ozodadir" asarida o'zbek xalq maqollaridan qay darajada mohirona foydalana olganini ko'rib chiqamiz. Qissada o'tmish zamonda xalqimiz iste'molida bo'lgan maqol, hikmatli so'zlarni qaytadan jonlantirilganligi, ularga yanada yangi ma'no, urg'u yuklatilganligi to'g'risida bahs yuritamiz.*

**Kalit so'zlar:** *lisoniy tahli, maqol, obraz, tip, ma'nodoshlik, arxaik so'zlar, uslub, izlanish, hikmatli so'z, ibora;*

**Abstract:** *The writer Khayriddin Sultan puts great emphasis on showing the rich possibilities and qualities of the Uzbek language through his works. In this article, we will see how skillfully Uzbek folk proverbs were used in the author's work "Kongil ozodadir". In the story, we discuss the revival of the proverbs and wise words used by our people in the past, giving them a new meaning and emphasis.*

**Key words:** *linguistic analysis, proverb, image, type, meaning, archaic words, style, search, wise word, phrase;*

**Абстрактный:** *Писатель Хайриддин Султан большое внимание уделяет показу в своих произведениях богатых возможностей и качеств узбекского языка. В этой статье мы увидим, как умело использованы узбекские народные пословицы в произведении автора «Конгил озодадир». В рассказе мы обсуждаем возрождение пословиц и мудрых слов, используемых нашим народом в прошлом, придавая им новый смысл и акцент.*

**Ключевые слова:** *лингвистический анализ, пословица, образ, тип, значение, архаичные слова, стиль, поиск, мудрое слово, словосочетание;*



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

### **KIRISH**

Yozuvchi hayotiy voqea-hodisalarni tasvirlab, obraz yaratar ekan, u tildan foydalanadi. Badiiy matnda hayotiy voqealarni, obrazlarni individuallashtirgan, umumlashtirgan holda, tasvirlovchi vositalardan biri tildir. Til adabiyotning birinchi elementi, asosiy qurolidir, ayni vaqtda til turmush faktlari va hodisalari bilan birga adabiyotning materialidir. Yozuvchi til vositasida obraz va tiplar, xarakter va manzaralar yaratar ekam, ularning mohiyatini ochib beradigan soʻz va iboralar tanlaydi. Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida badiiy asar tilidagi maʼnodosh, shakldosh, zid maʼnoli, koʻp maʼnoli, tarixiy va arxaik soʻzlar, yangi yasalmalar, shevaga oid soʻzlar, chet va vulgar soʻzlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi. Bunday tahlildan soʻng yozuvchi mahorati ham namoyon boʻladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Yozuvchi Xayriddin Sultonning "Koʻngil ozodadir" qissasi nafaqat juda koʻp kitobxonlar ommasining, balki keng jamoatchilikning qiziqishiga, diqqatiga sazovor boʻldi. Xususan, atoqli adabiyotshunos, munaqqid Ibrohim Gʻofurov soʻzlari bilan aytganda, "Xayriddin Sulton oddiy odamlarning yuraklaridagi maʼnaviyat gavharini, insonni insoniylik darajasida moʻtabar qilib turadigan xislatlarni teran va yorqin badiiyat bilan tasvirlashda alohida eʼtibor qaratadi". Obrazlarning munosabatida adib maʼnoli jummalarni qoʻllagan. Masalan, Qunduz va Gʻulom (Ishqda eng asosiysi tenglik) Gʻulom va Shodiyor (Odamning faqat lafzi halol) kabilarga xarakter berishda ularning jamiyatdagi voqealiklarga munosabati asos qilib olinadi.

Adibning "Koʻngul ozodadir" qissasi 1986-yilda yozilgan. Ushbu asar Eshmuhammedov domlaning taʼbiri bilan aytganda, "tarixan cheklangan" "Zarburmasal"ga oshno tutingan soddagina Gʻulomjonning taqdiri haqida hikoya qiladi. Adolatsizlik makon va zamon tanlamaydi. U har yerda va har vaqtda mavjud. Lekin uning qurbonlari Jaloliddin, Tursun, Qunduz kabi begunoh insonlar boʻlishini kim ham oʻylabdi deysiz?- shuncha vaqtdan beri hamoshiyon-u hamtovoq boʻlib,shu narsaga hanuz fahming yetmaydurki, meni faqat qalb koʻzi bilan koʻrmoq, dil qulogʻi bilan eshitmoq mumkin. Oʻzga xatti-harakatlar bekordur." - deydi Muhammad Sharif Gulxaniy.

Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi Toshtemir Turdiyev qissa haqida shunday iliq fikrlarni ilgari suradi:

"2019-yili "Yangi asr avlodi" nashriyotida chop etilgan ushbu kitobdagi "Saodat sohili", "Yozning yolgʻiz yodgori", "Ajoyib kunlarning birida", "Koʻngil ozodadir" qissalarini yangidan, yangi bir mehr va boʻlakcha zavq bilan oʻqib chiqdim. Bu asarlar menga 30-40 yildan buyon tanish, hatto baʼzi qissalardagi



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

manzaralar yod bo'lib ketgan bo'lsa-da, yangi hayajon bilan mutolaaga berildim. Adabiyot muhoblari juda yaxshi bilishadi, Xayriddin Sulton Zahiriddin Muhammad Bobur, Mavlono Gulxaniy, ayniqsa, Abdulla Qodiriy asarlarini, ularning yuksak insoniy-ijtimoiy faoliyatini teran o'rgangan yozuvchi. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asari asosidagi kinossenariy va "Ra'no gulining suvi", "Andisha", "Shoirona, darveshona bir ma'no" kabi esselar kitobxonlar tomonidan qizg'in qarshi olingan. Adib buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur haqida "Saodat sohili", "Oy botgan pallada", "Panoh", "Nuqta" kabi qissa va hikoyalar, "Boburiynoma" nomli ma'rifiy roman yaratgan. Zukko kitobxon bu asarlarda iste'dodli yozuvchi o'zini buyuk shoirga ruhan yaqin tutganini yaqqol his qiladi.

Adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karim kitobga so'z boshisida yozganidek, takror o'qish asarning sirli, yashirin qirralarini, avval ko'rilmagan fayzli tomonlarini anglashga yordam beradi. Qayta mutolaa badiiy asarning, olim aytganidek, yangi bir davru davronini boshlab berishi mumkin.

Muhokama. Maqollar - grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda yoki ham ko'chma ma'noda, ham o'z ma'nosida qo'llanadigan hikmatli xalq iboralaridir. Maqollarda fikrni lo'nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda juda qo'l keladi. Badiiy asaming xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalaniladi. Hikmatli so'zlar ma'lum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan ixcham, ma'nodor, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir. Nutqqa tayyor holda olib kirish imkoniyatiga ega bo'lgan bunday so'zlar aforizmlar ham deyiladi.

Xususan, yozuvchi Xayriddin Sultonning "Ko'ngil ozodatur" qissasini leksik tahlilga tortadigan bo'lsak, undagi frazeologik birikmalar alohida xususiyat kasb etadi. Deydilarki, ilon-chayonlarni o'rganayotgan odam, oxir-oqibat shu gazandalarga ham mehr qo'yib qolar ekan. Shundanmikan yoki yosh umrimni bag'ishlab o'ltirganim uchunmi, qay bir zamonlarda yashab o'tgan Muhammad Sharif Gulxaniy degan rindnafas bir odam ham endi menga otamdek aziz bo'lib qolgan, uzun, sovuq kechalarda uch xonali bo'm-bo'sh ijara uyda yolg'izlik nimadir – bilmas edim. Oy oxirlarida, shuncha paytdan buyon «og'ziga so'k solib olgan» telefon tuyqusdan tilga kirib, uy bekasi Dinora opa malol keltirmaygina ijara haqini eslatganida, g'oyibga tikilganча po'pisa qilib qo'yardim: «Xo'sh, mavlono Gulxaniy, beka ijara istar, oqchadan chiqarsinlar! Kechayu kunduz shunda hoziru



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

nozir bo'lsangiz, yo halimxona bundayu zikrxona undami?!» Mavlono Gulxaniy ranjib javob qilar edilarki: Biz qo'y ko'rmasak ham qiy ko'rgan erduk. Qul bilan quymoq yesang, qustirmay qo'ymas, cho'ri bilan chalpak yesang, qaytarmay qo'ymas».

«Og'ziga so'k solib olgan», ifodasi shu o'rinda uzoq vaqtdan beri ovozi chiqmagan ma'nosida kelib, so'zdagi mubolag'ani kuchaytirgan, telefon oddiy buyum bo'lgani holda, unga insonga xos bo'lgan holatni yuklagan holda, metafora yuzaga kelgan. Qul bilan quymoq yesang, qustirmay qo'ymas, cho'ri bilan chalpak yesang, qaytarmay qo'ymas maqolini keltirish bilan esa o'zining nochor holatini boshqa shaxs tili bilan ta'na sifatida keltirib o'tadi va holatni yanada ayanchliroq tarzda ifoda etadi.

Yozuvchi qissada o'zbek xalqining boy merosi bo'lgan xalq maqollaridan mohirona va juda ziyraklik bilan foydalanadi. Bu esa o'z navbatida, asarning badiiy saviyasini oshiribgina qolmay, uning xalqchilligini ta'minlaydi. Yo'qolib borayotgan milliy qadriyat va an'analarimizga ko'zgu tutadi, ularni obrazlar nutqiga go'zal ifoda tarzida olib kirib, yanada jonlantiradi, go'zallashtiradi.

So'ng tumtayib, indamay qolardilar, mening esa u kishi G'ulom ismimga mutoyiba qilganiga darhol fahmim yetaqolmas, anglab yetgach, bisyor zavqim qo'zib, kulib yuborardim. «Nechukkim aytmishlar,-der edilar u kishi soxta qovoq uyub,-qum yig'ilib, tosh bo'lmas, qul yig'ilib bosh bo'lmas». «Haqqast rost, taqsir,-der edim men,-g'ulomligim chin bo'lmasa, sizning etagingizdan tutarmidim? Yaxshilar bilan yurung-yetding murodg'a, yamon bila yurdung qolding uyotg'a. Bu o'zingiz aytgan so'zlar, tonmassiz, taqsir? Mana, kitobingizning yigirma uchinchi sahifasiga zikr etilibdir. Agar men ahmoq bo'lmasam, ana, olmaymanmi shoiri zamon «Ofarin Bayronning ijodida lirik qahramon evolutsiyasi» degan mavzuniyu bo'lmaymanmi shu paytgacha do'xtir nauk! Hayf', sizning tarixan cheklangan masalangizgayu, hayf mening nodon umrimga!» Bu iddaolarimga mavlono bepisand kular edilarki, «Ushbu so'zung birla izhori fazl qilg'oningmi?! Hech bilmas o'xshayursanki, yumruq yukunib biyk bo'lmas, echku yugurib kiyik bo'lmas».

Ana shu parchaning o'ziyoq yozuvchining yuksak mahoratini, topqir-u so'zamolligini e'tirof etish uchun yetarli. "G'ulom" so'zi arabchada "qul" degan ma'noni anglatadi. Qul bilan quymoq yesang, qustirmay qo'ymas, cho'ri bilan chalpak yesang, qaytarmay qo'ymas, maqoli orqali qahramon xayolidagi obrazidan ta'na eshitadi, keyingi o'rinlarda esa undan-da kuchliroq ta'naga duch keladi: «Nechukkim aytmishlar,-der edilar u kishi soxta qovoq uyub,-qum yig'ilib, tosh bo'lmas, qul yig'ilib bosh bo'lmas». Qum zarralari qanchalik ko'p bo'lsa ham, ularning barchasi birgina tosh kabi bo'lolmasligini, oddiy qullar esa bitta bosh(liq)



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

kabi qadrli emasligini va ayni zamonda qahramonning o'zi esa o'zini xuddi qul kabi qadrsiz, qiymatsiz his etayotganligi holatiga mos keladi. O'zbek tilidagi so'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra juda ko'p qirrali ekanligini adib topqirligi natijasida birgina qul- "G'ulom" ismi atrofida yuzaga kelgan, go'zal badiiy ifodaga olingan mana shu qisqa payrov asosida anglash mumkin. O'zbek xalq maqollarining qanchalik boy o'tmishga qadimiy tarixga ega ekanligi, Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridan bilib olamiz.

Mavlono Gulxaniy zikr etmish har bir maqol ortidan bir taqdir darichasi yaqqol ko'rinib turadi. Shu bilan bir qatorda, keyingi o'rinlarda uchraydigan holatlarda ham yozuvchi o'z qahramoniga so'zamolik baxsh etib, maqollardan ustalik bilan foydalanira olgan.

«Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyilmas». To'g'ri, deysizmi? O'lmang.

«Aslni xatosi bo'lmas, nokasni atosi». Ko'z o'ngingizdan bepadar nokaslar guras-guras saf tortib o'tayotgan bo'lsa, ajab ermas.

«Haromzodaning quyrug'i bir tutam». Quyrug'ini yashirib yurgan haromzodaning kimligini darrov tanidingiz -a? Borakalloh.

«Iki kema tutqonlar qoldi g'arqob ichinda». Bu, endi, tan olmog'im kerakki, vijdoni bilan domlasi o'rtasida sargashta kezib yurgan bir g'ulom ta'rifida – ya'ni kamina qulingiz xususida.

Ota so'rab netarsan erni o'zi bo'lg'on so'ng,

Yo'l so'ragaini nomarddur ot ustiga mingan so'ng

Taom mahali yetib, qorinlar sumay navosini boshladi. Men esa, azbaroyi g'ulomligimga borib, shu kungacha qariyb xo'jayin bo'lib kelgan uyimda oshxonaga chiqib, biror obi yovg'on pishirmoqqa istihola qilib turardim va bu haqda o'ylaganim sari tobora g'am bosar ediki, boyvachcha bolalarga o'xshaydi, go'shtsiz qozon ossam, ne xayolga borisharkin? Piyoz qolganmidi-yo'qmi? Idish-oyoq ulardan bo'shamagan bo'lsa, qandoq qilaman?

Boshim qotib, Muhammad Sharifga yuzlangan ko'yi ayt-dimki, shu uy ham jonimga tegdi, ishxonamga uzoq, har kuni it azobida borib-kelaman, isimaydi, sovuqligini qarang, katta ko'chaning og'zi, shovqin-suroni-chi... Mavlono Gulxaniy diydiyomni tinglab, miyig'ida kuldi: sani so'zung anga o'xsharki, bir odam yaxshi ko'rgan do'ppisini tez suvga oqizib, harchand taraddud bilan ololmadi, mahrum bo'lib aytur erdiki: «Yo'qolg'ani ham xo'b bo'ldi, boshimg'a ham tor kelur erdi», deb...

Natijalar. Yuqoridagi vaziyatlardan ko'rishimiz mumkinki, Gulxaniy obrazini bugungi zamonaviy hayotga olib kirgan holda, yozuvchi Xayriddin Sulton milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz mahsuli bo'lgan xalq maqollari bugungi kunda ham



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

ahamiyatini yo'qotmagan va aksincha, nutqimizni jozibali, ifodali qilishga, uni ta'sirchan bo'lishida juda muhim o'rin tutadi. Ularning ko'pchiligi bugungi kunda iste'moli kamaygan yoki butunlay iste'moldan chiqib ketgan. Ularni kundalik hayotga joriy qilish ona tilimizning go'zalliklarini ko'rsatishda asqotadi. Buning uchun esa yuqorida tilga olganimiz iste'dodli ijodkor Xayriddin sultonovning "Ko'ngil ozodadir" asari tipidagi asarlar zamonaviy kitobxon uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Maqollar tahliliga e'rtiborimizni qaratadigan bo'lsak, Ota so'rab netarsan erni o'zi bo'lg'on so'ng, Yo'l so'ragan nomarddur ot ustiga mingan so'ng, maqolida vaziyatga muvofiq, o'zi yetuk shaxs bo'lgan, ulg'ayib, o'zi uchun fikr bildiradi oladigan insondan otasini so'rab nima qilasan, u otaning tarbiyasidagi bola emas, mustaqil bir inson ma'nosini anglatib, davomidan ot ustida o'tirib, safar chiqishni bo'yingga olganingdan so'ng yo'l bilmayman deyish, yo'l so'rash uyat emasmi demoqchi bo'ladi.

Xulosa. Umuman olganda, xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xayriddin sultonovning bu asari faqatgina davrdagi ijtimoiy muammolarni aks ettiribgina qolmay, til, uning umkoniyatlari, go'zalliklarini ham chiroyli tarzda, o'ziga xos usulda aks ettira olgan, deb bemalol ayta olamiz. Bugungi axborot tezligi kuchli bo'lgan zamonda, ming-minglab so'zlarning chetdan o'zlashib borayotgan va aksincha, minglab o'zbekcha so'zlarimiz yo'qolib borayotgan zamonda o'zbek tilining imkoniyatini, boy tarixini ko'rsatib bera oladigan, xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lgan, go'zal ifoda tarzini o'zida aks ettira oladigan, kishilarni fikrlashga undaydigan maqollardan unumli foydalanib, ularni yana xalq turmush tarziga qaytarishga hissa qo'shadigan bunday asarlar zamon talabi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Adabiyot va zamon. Maqolalar, adabiy o'ylar, suhbatlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. – 1981 yil. – B. 400;
2. Sultonov X. "Odamlardan tinglab hikoya". -T.: "Adabiyot" 2020 7-bet;
3. Sultonov X. "Ko'ngil ozodadir",-T. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2005
4. Sultonov X. Onamning yurti. T. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987. – B. 246;
5. Sultonov X. To'qchilik va yo'qchilik. T. Ma'naviyat. 2000. – B. 188;